



## Maktab o‘quvchilarining axborot bilan ishlashda akmeologik yondashuvning pedagogik xususiyatlari

**Botiraliyeva Maftunaxon Botirali qizi**  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti

### ABSTRACT

Ushubu maqolada Akmeologik yondashuvni maktab o‘quvchilarining axborot bilan ishlashda akmeologik yondashuvning pedagogik xususiyatlari rivojlantirishlar bayon etilgan

### ARTICLE INFO

Received: 7<sup>th</sup> August 2023

Revised: 7<sup>th</sup> September 2023

Accepted: 8<sup>th</sup> October 2023

### KEY WORDS:

Axborot-kommunikativ kompetentlik, akmeologiya, axborot, ta’lim, axborot bilan ishlash, o‘quv mashg‘ulotlari.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati jamiyatda axborot bilan ta’milnishga munosabatni tubdan o‘zgartirish zaruratinini keltirib chiqarganligi sababli, hozirgi kunda zamонави kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari hamda texnologiyalarini barcha sohalarda qo’llash va yanada rivojlantirishga g‘oyat muhim e’tibor qaratilmoqda. Axborot bilan ishlash tizimi haqida to‘xtalar ekanmiz bunda alohida e’tiborga molik tomon o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltira bilish lozim. Bu muammo bugungi kun pedagoglari zimmasiga jiddiy va e’tiborli mas’uliyat yuklaydi. Ya’ni shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda yosh avlodni yetuk kadrlar qilib tayyorlashga mas’ul bo‘lgan pedagoglar oldiga qo‘yilayotgan talablar nihoyatda yuqori bo‘lib, ular sifat jihatidan yangi, intellektual, ma’nан barkamol va yuksak professional salohiyatli shaxslarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

6-7-sinf o‘quvchilarida axborot bilan ishlash tizimini tashkil qilinishi natijasida noan’anaviy ta’lim shakli samaradorligiga erishish mumkin. Ya’ni:

- o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan asosiy g‘oya va mazmunni o‘qituvchi ko‘rsatibberadi, material mazmunini to‘ldirish ta’lim oluvchilar bilan birga amalga oshiriladi;

- ta’lim oluvchilardagi ijodiy “uyg‘onishlar” tufayli tasodifiy burilish va chetga chiqishlar yuzaga keladi;

- didaktik materiallarga ta’lim oluvchilarda axborotlarni qabul qilishda ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan materiallar kiritib boriladi;

- ta’lim oluvchilardagi ijodiy tasavvurlarning kengligiga qarab bilimlar hajmi chegaralanmaydi;

- “ta’lim beruvchi-ta’lim oluvchi” munosabatlari qatorida ta’lim oluvchi munosabatlariga keng o‘rin beriladi;

- muammoli ta’limga keng o‘rin beriladi.

O‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlanish bosqichlarida:

- axborotlarni qabul qilishga doir ehtiyojlar va ularni yuzaga keltiradigan omillarning mavjudligi;

- zarur bo‘lgan axborotlar haqida tasavvurga ega bo‘lish va ularni izlash, zararli va foydasiz axborotlarga nisbatan tegishli immunitetning mavjudligi axborotlashning texnik vositalaridan foydalana olish;

- axborotlarning mohiyatini tushunish, ularni bilim sifatida o‘zlashtirish, kengaytirish va tizimga solish;

- mavjud muammo yoki vaziyatlarning yechimini topishga doir amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, yuzaga keladigan vaziyatlar haqida faraz qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’ruzasida ta’kidlab o‘tilganidek, - “Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi choratadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabda axborot bilan ishslash psixologik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning axborotlarni shakllantirish ta’lim amaliyotida bir oz murakkab hamda qo‘llash tartibi ma’lum darajada pedagogdan yuqori malaka talab etadigan jarayon hisoblanadi. Axborot bilan ishslashda o‘quvchilarni psixologiya mazmuniga kiruvchi akmeologiyani ta’lim mazmuniga kiritishning o‘quvchilarning zamonaviy AKT sifatlarini takomillashuvini amalga oshirish uchun asosiy vosita sifatida qaralishi jarayonning samarali keshishini ta’minlaydi.

Ta’lim amaliyotida akmeologik yondashuvni o‘rganishning alohida yo‘nalishi shundaki, u nafaqat shaxslarning turli yoshdagilar yutuqlarini, balki bunga hissa qo‘shadigan omillarni ham o‘rganib chiqadi. 1929 yilda N.A.Ribnikov “akmeologiya” atamasini etuk odamlarning rivojlanishi haqidagi fan bilan bog‘lashni taklif qiladi. Akmeologiya butun dunyoda mustaqil fan sifatida tan olinmagan bo‘lsa-da, xorijiy olimlar uni psixologiyaning bo‘limi sifatida e’tirof etadilar, rus olimlari akmeologik yangi bilimlar majmuuni davlat darajasida tan olib, ularga katta ahamiyat berishadi. Umuman olganda, shaxsning shakllanishi bir umr davom etuvchi jarayon bo‘lib, ayniqsa, o‘smirlik davri va insonning o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida katta o‘rin tutadi. Shu o‘rinda akmeologiyani biz, shaxsni o‘sish va qulash darajasi sifatida e’tirof etishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni axborot bilan ishslash o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini shakllantirishda ularning bilim darajasni yanada oshrishga yordam beradi.

Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatidan kelib chiqib, hatto ulg‘aygan shaxsning rivojlanish va komillikka erishish jarayonini o‘rganuvchi maxsus fan – akmeologiya deb ataladi. Akmeologiya sho‘qqi, yuqori rog‘ona, gurkiratuvchi bilim ma’nolarini bildiradi. Bugungi kunda yangi ta’lim texnologiyalari fan shunday yangi tarmoqki, u insonni o‘z taraqqiyot dinamikasida (manaviy kamolotida), takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalarini o‘rganadi. Ya’ni axborot bilan ishslash o‘quvchilarning bilimlarni shakllantirish jarayonida ana shu taraqqiyot va yuksalishning ob’ektiv hamda sub’ektiv omillari doirasida tadqiq etadi.

Yuqorida keltirilgan akmeologik xulosa natijalarining katta amaliy ahamiyati shundaki, ular o‘quvchilarni qanday sharoitlarda intellektual va ma’naviy faollik sho‘qqisiga olib chiqqanligi to‘g‘risida ma’lumotni ifodalaydi. Ko‘p jihatdan, bu bizni hayot mazmunini tuchunishga yaqinlashtiradi.

O‘quvchilarning akmeologik yondashuv asosida axborot bilan ishslash sifatlarini bilim berish tarbiyalash o‘quvchilarning ko‘pqirrali rivojlanishini ta’minlaydi. U o‘quv mashg‘ulotlari davrida o‘quvchilar rivojlanishining barsha jihatlarini iloji borisha yoritib berishga harakat qiladi. Ushbu hodisa quyidagilarni o‘z ishiga oladi:

Umumiyl o‘rtta ta’lim tizimida olib borilgan ko‘rgina tadqiqot natijalari va To‘plagan tajribalar asosida turli davrlar qator yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Alovida-alohida, ko‘rib chiqilayotgan ta’limotlar doirasida professional akmeologiya vujudga keldi. O‘z navbatida, u o‘zining quyidagi asoslariga ega:

- pedagogik akmeologiya;
- maktab akmeologiyasi;
- axborot bilan ishslash akmeologiyasi;
- ijtimoiy akmeologiya;
- harbiy akmeologiya;

- tibbiy akmeologiya.

Shu bilan birga akmeologiya o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida, ya’ni axborot bilan ishlash darslarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish diqqat markazida bo‘lmog‘i - bu shakllangan va yangi paydo bo‘lgan bilimlar hamda harakatlar majmui o‘quvchilarning akmeologik shakllanish darajasi bilan belgilanadi. O‘quvchilarning akmeologik rivojlanish darajasi fan mazmunida belgilangan vazifalarning aniq va mukammal bajarilishi hisobiga amalga oshiriladi.

Akmeologik yondashuvning yana bir ko‘rsatkichi ijtimoiy guruhda uning fazilatlari va ahamiyatini tan olishdir. Gurux tarkibidagi sheriklarining shaxsiy sifatlarini baholashiga qarab uning o‘z yutug‘i va yo‘lidagi muvaffaqiyatsizliklariga munosabati shakllanadi: ya’ni tan olish shaxsiy darajada paydo bo‘ladi.

**Adabiyotlar:**

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2022 йил 28 уанвар куни мактаб та’лимини ривожлантириш масалалари бо‘йисча видеоселектор йиг‘илишидаги нутqi.
2. Андреев В.И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости: монография / – Казань: Центр инновационных технологий, 2015. – С. 2888
3. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе и его закономерные основы. – Москва: Высшая школа, 1997. – С. 367.
4. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Ходиев Б.Ю. таҳрири остида. // Тошкент: – «Иқтисодиёт». 2009. –Б. 35.